

RESPUBLIKAMIZDA YER RESUSRLARIDAN OQILONA FOYDALANISHDA DAVLAT KADASTRNING AHAMIYATI

Islomov O‘tkir Pirmetovich

*“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti t.f.f.d., PhD., dosenti*

Annatsiya: *Mazkur maqolada davlat yer kadastrining yer resurslarini boshqarishda o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Yer kadastr tizimi, yer uchastkalarining holati va huquqiy maqomini aniq belgilash orqali samarali boshqaruvni ta‘minlaydi. Maqolada, davlat kadastrining yer resurslarini adolatli taqsimlash, ekologik barqarorlikni saqlash va ijtimoiy rivojlanishga qo‘shgan hissasi ko‘rsatiladi ya‘ni yer kadastr turlari, tarkibiy qismlari, tamoyillari va rivojlanish istiqbollari tizimni takomillashtirish yo‘llari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Davlat kadastr, Yer kadastr, bino va inshootlar, restr kadastr, ko‘chmas mulk, asosiy, joriy, yer kodekisi, xo‘jalik huquqiy, uchastka, ob‘ekt, Davlat, viloyat, tuman shahar.*

Respublikamizda Davlat kadastrlarini yaratish va yuritish uslubiyati, ilmiy tomoiyllarini va konsepsiyalari davlat kadastrini yurituvchi mas‘ul vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar tomonidan belgilab berilgan. Yer resurslaridan samarali foydalanish, konlar, foydali qazilmalar va texnogen hosilalarning yuzaga chiqish hollari davlat kadastr; davlat suv kadastr; davlat o‘rmon kadastr; qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar davlat kadastr; binolar va inshootlar davlat kadastr; gidrotexnika inshootlari davlat kadastr; madaniy meros ob‘ektlari davlat kadastr; avtomobil yo‘llari davlat kadastr; temir yo‘llar davlat kadastr; aloqa ob‘ektlari davlat kadastr; energetika ob‘ektlari davlat kadastr; chiqindilarni ko‘mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastr; tabiiy xavf yuqori bo‘lgan zonalar davlat kadastr (xavfli geologik jarayonlar bo‘limi) kartografiya-geodeziya va hududlari davlat kadastrlari tashkil etilib mas‘ul davlat organlari zimmasiga yuklatilgan. Davlat kadastrlari ma‘lumotlari asosida geografik axborot tizimi qatlamlari yaratilib, ushbu axborotlar bazasi vazirliklar, davlat qo‘mitalari, mahalliy hokimiyat, soliq organlari yuridik va jismoniy shaxslar uchun zaruriy ma‘lumotlarni olishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda davlat yer kadastr ma‘lumotlari alohida muhim ahamiyatga ega. Ushbu o‘quv qo‘lanma davlat kadastrlarini yaratish va yuritish sohasida ortirilgan ko‘p yillik tajriba va yig‘ilgan materiallarni o‘rganish natijalari hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda kadastr jahondagi barcha mamlakatlarda yuritilmoqda, u tabiiy resurslardan foydalanishni, muhandislik faoliyatini, ekologik, ijtimoiy xodisalarni hisobga olish, holatini baholash, tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir. Kadastr o‘z sharoiti bilan bir xil bo‘lgan hududiy birliklarni ajartishga, ularni kartaga tushirish, sifat va miqdor tavsiflaridan foydalangan holda ta‘riflashga mo‘ljallangan

Shunisi ahamiyatliki horijiy mamlakatlar tajribasida kadastr tushunchasini ko‘p hollarda ko‘chmas mulk tushunchasi bilan bog‘lashadi. Shuning bilan birglikda ko‘chmas

mulk deganda quyidagilar tushiniladi: yerga mustahkam bog‘langan (bog‘liq) soni va qiymati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lgan, yer uchastkalarga va boshqa ko‘chmas mulklarga bo‘lgan mulkchilikni umumiy ro‘yxatga olish. “Kadastr” so‘zi butun dunyoga tarqalgan bo‘lib, faqat Skandinaviya davlatlari uning o‘rniga “Reestr” so‘zidan foydalanishadi. “Kadastr” so‘zini kelib chiqishini etimolog-olimlar har xil tushuntirishadi. Masalan, fransuz etimologi Blondxeym “kadastr” so‘zi grekcha “katastikon” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib “yozuv daftari” degan ma‘noni bildiradi deb hisoblaydi.

Boshqa olim, Dobner 1892 yil “kadastr” so‘zini o‘rta asr lotin so‘zi “kapitastrum” bilan bog‘laydi, bu so‘z ikkita so‘zdan “kapitum” va “registrum” so‘zlarining qo‘shilishidan tashkil topgan bo‘lib, bo‘lingan rim viloyatlari hududlarni baholash birligi reestri” degan ma‘noni beradi.

Yer resurslarini boshqarish, ekologiya va iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida, davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatadigan muhim jarayondir. Yer resurslari bu tabiiy resurslarning muhim bir qismi bo‘lib, ularning to‘g‘ri boshqarilishi ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muvozanatni ta‘minlash uchun zarurdir. Yer resurslarini samarali boshqarish jarayoni, insoniyatning kelajagi uchun muhim omil bo‘lib, uning iqtisodiy rivojlanishiga, ekologik barqarorlikka va ijtimoiy farovonlikka bevosita ta‘sir qiladi.

Yer resurslari nafaqat odamlar uchun yashash muhitini ta‘minlaydi, balki iqtisodiy faoliyatning asosini tashkil etadi. Ular qishloq xo‘jaligi, qurilish, sanoat va boshqa sohalarda foydalanuvchilarga kerakli materiallarni taqdim etadi. Yerning resurslarga boyligi, shuningdek, davlatning iqtisodiy salohiyatini ham belgilaydi. Ammo, bu resurslarni to‘g‘ri boshqarish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlar, texnologiyalar va strategiyalar zarurdir. Noto‘g‘ri yoki samarasiz boshqarish esa, yerning degradatsiyasiga, tabiiy resurslarning kamayishiga va iqtisodiy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

Ekologik nuqtai nazardan, yer resurslarini boshqarishning eng muhim jihati tabiiy muvozanatni saqlashdir. Yerning unumdorligini yo‘qotishi, tuproq eroziyasi, sho‘rlanishi va qishloq xo‘jaligi uchun yaroqsiz holatga kelishi natijasida, ekologik ofatlar yuzaga kelishi mumkin. Bu esa nafaqat qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni kamaytiradi, balki o‘simlik va hayvonot dunyosining muvozanatiga ham ta‘sir qiladi.

Yer resurslarini to‘g‘ri boshqarish orqali ekologik barqarorlikni ta‘minlash mumkin. Misol uchun, o‘rmonlarni asrash va tiklash, sug‘orish tizimlarining samaradorligini oshirish, ekinlar uchun mos joylarni belgilash orqali yerning unumdorligini saqlash mumkin. Shu bilan birga, yerning har bir turini ehtiyotkorona ishlatish orqali resurslar kamayishining oldini olish va tabiiy muhitni himoya qilish mumkin.

Yer resurslarini boshqarish, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muvozanatni ta‘minlash uchun muhim jarayon bo‘lib, uning samarali amalga oshirilishi jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Yer resurslarini boshqarishda ilmiy yondashuvlar, ilg‘or texnologiyalar va strategiyalarni joriy etish, tabiiy resurslarning barqaror foydalanilishini ta‘minlaydi. Bu esa, atrof-muhitni saqlash, iqtisodiy o‘rinishni davom ettirish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga yordam beradi. O‘zbekiston miqyosida, yer resurslarini to‘g‘ri

boshqarish nafaqat mamlakatning kelajagi, balki uning xalqining farovonligi uchun ham juda muhimdir.

Davlat yer kadastrı Davlat kadastrlari yagona tizimining asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, u yerlarning tabiiy, xo‘jalik, huquqiy rejimi, toifalari, sifat xususiyatlari va qimmatı, yer uchastkalarining o‘rni va o‘lchamlari, ularning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar o‘rtasidagi taqsimoti to‘g‘risidagi ma‘lumotlar hamda hujjatlar tizimidan iboratdir.

Davlat yer kadastrı Davlat kadastrlari yagona tizimining asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, u yerlarning tabiiy, xo‘jalik, huquqiy rejimi, toifalari, sifat xususiyatlari va qimmatı, yer uchastkalarining o‘rni va o‘lchamlari, ularning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar o‘rtasidagi taqsimoti to‘g‘risidagi ma‘lumotlar hamda hujjatlar tizimidan iboratdir.

Davlat yer kadastrı yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini, yerlarning miqdori va sifatining hisobga olinishini, tuproq bonitirovkasini, yerlarning qiymat bahosini, shuningdek yer kadastriga doir axborotlar bir tizimga solinishi, saqlanishi va yangilab turilishini o‘z ichiga oladi.

Tabiiy resurslar ichida yer, ayniqsa katta ahamiyatga egadir. Berilgan ma‘lumotlarga qaraganda O‘zbekiston Respublikasining umumiy yer maydoni 44890,1 ming.ga ni tashkil etadi. Ushbu maydonning 90 foiziga yaqini davlat tomonidan egalik qilish yoki foydalanish maqsadlarida turli korxonalar, muassasa va tashkilotlarga birlashtirilgan. Yer resurslari respublikaning milliy boyligidir. Yer – turli fan sohalarida turlicha ma‘noga ega. Masalan: astronomiyada «Yer» - quyosh atrofida aylanuvchi va uning tizimida uchinchi bo‘lgan sayyora; geografiyada «Yer» - mazkur sayyoraning quruqlik qismi; qishloq xo‘jaligida «Yer» - sayyoramizning quruqlik qismining eng yuqori tuproqlarni qamrab oluvchi atrof tabiiy muhitning alohida bir qismi yoki komponenti; yurisprudensiyada «Yer» - tasarruf qilish, egallash va foydalanish predmeti hamda ijtimoiy munosabatlarning mustaqil ob‘ekti sifatida qaraladigan sayyoramiz quruqlik qismining eng yuqori qatlami; texnik sohasida «Yer» - ma‘lum bir turdagi xalq xo‘jaligi ob‘ektlarini qurish yoki joylashtirish uchun mo‘ljallangan zamin hisoblanadi. Ishlab chiqarishning har qanday vositalaridan to‘g‘ri va samarali foydalanish ko‘p jihatdan uning eng muhim xususiyatlari qanchalik chuqur va har tomonlama o‘rganilganiga bog‘liq bu eng avvalo, yerga tegishli bo‘lib, undan oqilona foydalanish ilmiy asoslangan tadbirlar majmuini ishlab chiqarishga izchillik bilan yondoshish va amalda to‘plangan tajribaga rioya qilgan holda tashkil etilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 apreldagi «Yer kodeksi»; «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi, «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi 1993 yil 6 maydagi «Yer solig‘i to‘g‘risida»gi, 1998 yil avgustidagi «Davlat Yer kadastrı to‘g‘risida»gi qonunlar; Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 17 iyulidagi «O‘zbekiston Respublikasida Davlat kadastrining yagona tizimini yaratish va yuritish tartibi to‘g‘risida»gi va boshqa hujjatlar Yer kadastriga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirib yubordi. Natijada yerga egalik qilish va yerdan foydalanishda yangi shakllar vujudga keldi. Yerni har tomonlama yaxshilash, uning unumdorligini, iqtisodiy samaradamligini doimo oshirib borish – bu qaytayotgan

umuminsoniy qadriyatlar, qishloq xo‘jalikni yuritishning ilmiy tizimi asoslari va yerdan yuqori mahsuldorlik bilan foydalanishdir. Yerdan to‘g‘ri foydalanish, zamon va makonda har xil o‘simlik turlarining ilmiy asoslangan ketma-ketligi, tuproqqa ekologik «toza» ishlov berish usullari, o‘g‘itlash, qulay agrotexnika muddatlarini kasallik va zararkunandalardan himoya qilish, tuproq 7 eroziyasiga qarshi kurash kabi muayyan elementlar aniq qonunchilik yo‘li bilan boshqarishni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi»ning 15-moddasiga muvofiq, davlat Yer kadastrı yerlarining tabiiy, xo‘jalik va hududiy tartibi to‘g‘risidagi, ularning toifalari, sifat ko‘rsat-kichlari va qiymati to‘g‘risidagi, yer uchastkalarining joylashgan o‘rni va o‘lchamlari to‘g‘risidagi, ularni yer uchastkaları mulkdorlariga, yer egalari va yerdan foydalanuvchilarga taqsimlash to‘g‘risidagi zarur, ishonchli ma‘lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat. Davlat Yer kadastrı yer munosabatlarini tartibga solish, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni, yer tuzish ishlarini tashkil etish, yer tuzish, yer uchun to‘lanadigan haq miqdorlarini asoslash, xo‘jalik faoliyatiga baho berish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, posyolka, qishloq va ovullar, o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni yer to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bilan taminlashga mo‘ljallangandir. Davlat Yer kadastrı muhim xalq xo‘jaligi ahamiyatiga ega. Uning ma‘lumotlaridan turli masalalarni hal qilishda, jumladan, Yer solig‘i, yer maydonlariga ijara haqi miqdorlarida belgilashda, qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligini rejalashtirishda, yer tuzishda, yerdan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalarni hal qilishda foydalaniladi.

Yer kadastrı fransuz tilida «cadastre» – reestr, ya‘ni ro‘yxat degan ma‘noni bildiradi, - yerning tabiiy xo‘jalik va huquqiy holati haqidagi zarur ma‘lumotlar yig‘indisi tushuniladi. Yer kadastrı quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: yerga egalik qilish va yerdan foydalanishni ro‘yxatdan o‘tkazish, yerlarning miqdoriy hisobi, yerlarning sifat bahosi – bonitirovkasi, yerlarni iqtisodiy baholash. Tuproqlarni har tomonlama yaxshilash, uning unumdorligini va iqtisodiy samaradorligini oshirish qishloq xo‘jaligi kelgusidagi rivojining muhim masalalaridan biridir. Yer kadastrining mazmuni. Kadastr tizimida ma‘lum bir tabiiy ob‘ektlardan huquqiy foydalanish haqidagi tavsiyanomalar, foydalanuvchilar va ifloslantiruvchilar ro‘yxati, ularni qayta tiklash choralari haqida takliflar hamda kelajakdagi izlanishlar va boshqa shunga o‘xshash ma‘lumotlar keltirilishi mumkin.

Davlat Yer kadastrining huquqiy-me‘yoriy asoslari 1998 yil avgustda qabul qilingan «Davlat Yer kadastrı to‘g‘risida»gi Qonun, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 31 dekabrıdagi «O‘zbekiston Respublikasi davlat Yer kadastrını yuritish to‘g‘risida»gi 543-sonli qarori va unga ilova qilingan «Davlat Yer kadastrını yuritish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom va boshqa qonun hujjatlarıdir

Yer kadastrını olib borish viloyat va tumanlarda Yer resursları Davlat qo‘mitasining tegishli viloyat va tuman, shahar va qishloqlarda tuman va shahar ko‘chmas mulk kadastrı hamda Geodeziya, kartografiya va davlat kadastrı bosh boshqarmasi xizmati bo‘linmalarining tegishli faoliyati bilan bog‘liq. Yer kadastrı hujjatlari – yer uchastkalariga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlari, tuman (shahar) Yer kadastrı daftari, yerlarning

miqdor, sifat holati va ularning bahosi to‘g‘risidagi hisobotlar, kadastr xaritalari, planlari va qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan boshqa hujjatlar yig‘indisidan iborat (Davlat Yer kadastr to‘g‘risidagi qonunning 12-moddasi). Yer kadastr xaritalari va planlari – kadastr to‘g‘risidagi axborot va ma‘lumotlarni ifoda qilishning qog‘oz va plastiklar yoki elektron vositalar (raqamli xaritalar) yordamida ma‘lum bir masshtablarda ifoda etilishidir. Xaritalar respublika, planlar esa aholi yashash joylari va yer uchastkalari bo‘yicha tuziladi. Ular Yer kadastrining geografik hujjatlar toifasiga kirib, Yer fondi toifalari va yer uchastkasi kadastriga tegishli tavsiflar olish maqsadida tuziladi va o‘zgartirishlar kiritib boriladi. Xarita va planlarda Yer fondi toifalari hamda yer uchastkalarining joylashgan o‘rni, maydonlari, chegaralari, baholash suv manbalari, yer uchastkaida joylashgan binolar va inshootlar ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Yer kadastr o‘tkazilish mazmuni va tartibiga qarab asosan 2 turga bo‘linadi: asosiy yoki birlamchi va joriy yoki kundalik. Asosiy (birlamchi) Yer kadastrining vazifasi yerlarning tabiiy, xo‘jalik hamda huquqiy holatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni birlamchi sifatida olish va Yer kadastr hujjatlarida yoritishdan iborat.

Asosiy Yer kadastr davriy ravishda qayta tasbirga olishdan, yerlarni kuzatuvdan, yer baholash ishlarini bajargandan so‘ng, yangi yer egalari yoki yerdan foydalanuvchilar tashkil etilganda, Shuningdek, qaytadan tasdiqlangan Yer kadastr hujjatlarini navbatdagi to‘ldirish chog‘ida o‘tkaziladi. Asosiy Yer kadastrida yer egaliklari (yerdan foydalanuvchilar) ning umumiy maydonlari, yer turlarining tarkibi, yerlarning sifat holati, tuproqlarning bonitirovkasi va yerlarning iqtisodiy baholari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘zida jamlagan materiallar va hujjatlar to‘planadi, tahlil qilinadi. To‘plangan materiallar chuqur tahlil qilinadi, ularning to‘laligi, aniqligi va ob‘ektivligi tekshiriladi.

Joriy Yer kadastr-bu asosiy Yer kadastr o‘tkazilgandan so‘ng yerlardan foydalanishda ro‘y beradigan o‘zgarishlarni aniqlash va Yer kadastr hujjatlariga tushirishdir. Bundan tashqari, boshlang‘ich yozuvlardagi hatolarni tuzatish va zamon talablariga mos qo‘shimcha ma‘lumotlarni ham kiritish joriy Yer kadastrining vazifasiga kiradi. Boshqacha qilib aytganda, joriy kadastr Yer kadastr ma‘lumotlarining bugungi kun darajasida bo‘lishini ta‘minlaydi. Asosiy va joriy kadastr o‘zaro bog‘liq bo‘lgan Yer kadastrining bosqichlaridir. Asosiy kadastr joriy kadastr yuritish uchun asos yaratadi. Joriy kadastr, asosiy kadastr ma‘lumotlarini yangilangani va to‘ldirgani hollarda yer to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni sistemali tarzda hozirgi zamon talabi darajasida ushlab turadi. Shu sababli ham joriy kadastr asosiy kadastr ishlari tugagandan so‘ng birdaniga tashkil etilishi zarur.

Yer kadastr ma‘lumotlarining aniqligi yer tuzish, tasbirga olish va kuzatuv materiallarining sifatiga bog‘liq. Joriy Yer kadastrida asosiy Yer kadastr materiallaridan foydalaniladi. Yer kadastr quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: yer-mulklarini, yer egaligi va yerdan foydalanuvchilarni ro‘yxatini qilish; yer maydonlarini miqdor hamda sifat jihatidan hisobga olish; tuproq bonitirovkasi va yerlarni iqtisodiy jihatdan baholash. Yer mulklarini, yer egasiga va yerdan foydalanuvchilarni ro‘yxat qilish Yer kadastrining birinchi tarkibiy qismi bo‘lib u yer maydonlarini huquqiy jihatdan ho‘jalik holatini ta‘minlaydi.

Yer maydonlarining hisobi yer maydonlarining miqdori va sifati haqidagi to‘la ma‘lumotlarni olish, qayta ishlash, ma‘lum bir tizimga keltirish hamda saqlash bo‘yicha majmualiy tadbir hisoblanadi. Yer maydonlarini miqdor jihatdan hisob-kitob qilish yer ularning ma‘lum ma‘muriy-hududiy birliklarga, yer toifalarga, yer-mulklari, yer egaliklari, yerdan foydalanuvchilarga va yer turlariga bo‘yicha taqsimlanishi haqida ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Yerlarni sifat jihatidan hisob qilishning vazifasi tuproq qatlami hamda yer-mulkligi, yer egaligi va yerdan foydalanishlar nuqtasi nazardan yer turlarini tabiiy, meliorativ va xo‘jalik holatiga har tomonlama tavsif berishdan iboratdir

Xulosa qilib aytganda yer resurslaridan samarali boshqarishda davlat yer kadastri alohida o‘rin tutadi. U yer uchastkalarining huquqiy maqomi, tabiiy holati va iqtisodiy qiymati haqida aniq va ishonchli ma‘lumotlarni taqdim etish orqali boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada ta‘kidlanganidek, yer kadastri tizimi faqatgina yerlarni hisobga olish vositasi bo‘lib qolmay, balki ularni adolatli taqsimlash, ekologik barqarorlikni saqlash va ijtimoiy rivojlanishga zamin yaratishda ham muhim vositadir.

Kadastrning turlari, tarkibiy qismlari va asosiy tamoyillarini o‘rganish orqali uning yer siyosatidagi o‘rni yanada chuqur anglash mumkin. Ayniqsa, zamonaviy raqamli texnologiyalarga asoslangan kadastr tizimlarini joriy etish yer resurslarini boshqarishda yangi bosqichni boshlab beradi. Bu esa nafaqat yerni hisobga olish va uni samarali taqsimlashni, balki korrupsiyaning oldini olish, yerga oid huquqiy nizolarni kamaytirish va fuqarolarning yerga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu boisdan, davlat yer kadastri tizimini yanada takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Maqolada ilgari surilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, yer kadastri – bu faqat yer haqida ma‘lumotlar bazasi emas, balki butun jamiyatning ekologik va iqtisodiy barqarorligi uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent 2023 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi to‘g‘risida”gi PQ-4575-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2024-yil 5-avgustda “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e‘tirof etish to‘g‘risida”gi O‘RQ-937-son Qonuni.
4. Fazoviy ma‘lumotlar sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 620-sonli qarori (2024-yildagi o‘zgarishlar bilan).
5. O‘zbekiston Respublikasi Yer fondi 2024 yil.

6. Xodiev B.Yu., Abdullaev Z.S. Yer resurslari qiymatini baholash. Toshkent, “Iqtisod moliya”, 2010
7. O‘zbekiston Respublikasida sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlarini sifatii, iqtisodiy va qiymat jihatidan baholashning muvaqqat uslubiyati. Toshkent, O‘zdaverloyiha, 1998 yil
8. O‘zbekiston Respublikasi yer fondining holati bo‘yicha Milliy hisobot. Toshkent, Davergeodezkadastr, 2014
9. O‘zbekiston Respublikasi yer fondining holati bo‘yicha Milliy hisobot. Toshkent, Kadastr agentligi, 2023
10. Bobojonov A.R., Rahmanov Q.R., G‘offorov A.J. Yer kadastr darslik. Toshkent 2013-yil.
11. Internet ma’lumotlari.